

## 1. МАЪРУЗА МАШГУЛОТЛАРИ

**1-Мавзу.Махсус материалшунослик,тикувчилик газламалари,фанининг мақсади ва вазифалари.** Маъруза машғулотининг таълим технологиясининг модели.

<b>I- машгулот</b>	<b>Текисликда ҳаракатланадиган механизмнинг тузилиши</b>
<b>Ўқув соати:</b> 2 соат	<b>Талабалар сони:</b>
<b>Ўқув машгулотининг шакли</b>	<b>Ахборотли маъруза</b>
<b>Машгулотнинг режаси:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Махсус материалшунослик хақида умумий маълумот.</li> <li>2.Тикувчилик газламаларини турлари,ишлатилиши.</li> <li>3.Махсус материалшунослик фанининг мақсад а вазифалари.</li> </ol>
<b>Ўқув машгулотининг мақсади:</b>	<b>1.Махсус материалшунослик ,тикувчилик газламалари, фанининг мақсади ва вазифалари хақида маълумот бериш.</b>
<b>Педагогик вазифалари:</b> 1) Махсус материалшунослик хақида тушунча бериш 2) Газламаларнинг асосий турлари тўғрисида маълумот бериш. 3) Махсус материалшунослик фанининг мақсад ва вазифалари тўғрисида маълумот бериш.	<b>Ўқув фаолиятининг натижалари:</b> 1)Махсус материалшунослик умумий тўғрисида тушунча эга буладилар 2)Газламаларнинг асосий турлари уларнинг ишлатилиши тўғрисида маълумотга эга буладилар. 3)Махсус материалшунослик фанининг мақсад ва вазифалари тузилиш тўғрисида маълумотга эга буладилар.
<b>Таълим усуллари</b>	Маъруза, тезкор сўров, намойиш этиш, сухбат. “Кластер”методи.
<b>Таълим воситалари</b>	Ўқув кўлланма, слайдлар,
<b>Ўқитиши шакллари</b>	жамоавий, гурухларда ишлаш.
<b>Ўқитиши шарт-шароити</b>	Техник воситалар ва гурухларда ишлашга мўлжалланган аудитория

### Ўқув машғулотининг технологик харитаси

<b>Ишининг босқич-лари ва вақти</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
	<b>Ўқитувчининг</b>	<b>Талабаларнинг</b>
<b>1. Кириш қисми.</b> (15дақиқа)	1.1 Мақсад ва режалаштирилган ўқув натижалари билан таништириш 1.2 Маъруза режаси билан таништиради. 1.3 Талабаларга ўтилган мавзу юзасидан тезкор саволлар беруб билимларини текшириш Жавобларни биргаликда умумлаштиради ва асосий маъруза мавзусига ўтилади.	Диққат қиласи ва ёзиб оладилар. Тинглаб ёзиб оладилар. Тинглаб саволларга жавоб берадилар.
<b>2. Асосий қисм</b> (55 дақиқа)	2.1 Махсус маътериалшунослик хақида умумий маълумотлар.	Тинглаб, 4-иловадаги Кластерни чизиб, ёзиб оладилар ва уни тўлдириб борадилар
	2.2 Газламаларнинг асосий турлари тўғрисида маълумот бериш	Тинглаб, ёзиб оладилар ва Кластерни тўлдириб борадилар

	2.3 Maxsus материалшунослик фанининг мақсад ва вазифалари	Талаба ўқитувчини тинглаб ёзиб оладилар ва Кластерни тўлдириб борадилар
3.Якунловчи қисм. (10 дақиқа)	3.1 Мавзу бўйича якуний хулоса ясайди, муҳим жиҳатларга иштирокчилар дикқатини жалб қиласди, мавзу юзасидан саволларга жавоб беради.	Тинглайдилар
	3.2 Гурӯҳ фаолларини, алоҳида иштирокчиларни баҳолайди, ўзаро баҳолаш натижалари бўйича хулоса қиласди.	Тинглаб, ёзиб оладилар.
	3.3 Ўқув машғулотининг мақсадига эришиш даражасини таҳлил қиласди ва баҳолайди.	Тинглайдилар
	3.4 Уй вазифа беради: Мавзу бўйича «Кластерга» тузиб келиш.	Тинглаб, ёзиб оладилар.

### Дарс режаси:

1. Maxsus материалшунослик хақида умумий маълумот.
2. Тикувчилик газламалри турлари ва ишлатилиши.
3. Maxsus материалшунослик фанининг мақсади ва вазифалари.


**Таянч тушунчалар:** махсус материалшунослик, газлама, тўқимачилик, авралик газламалари, пахта ва жун, сунъий ва таъбий тола, толаларнинг олиниши, нотўқима газлама.

Materialshunoslik bu amaliy fan bulib, (materiallarni yoki tuqimachilik mahsulotlarini) tuzilishini, hususiyatini va sifatini aniqlaydigan fandir. Bundan tashqari ishlab chiqariladigan mahsulotlarni olinishi tehnologiyasi haqida umumiy ma'lumotlar beradi. Materiallarga yoki tuqimachilik mahsulotlariga tolalar va ulardan ishlab chiqariladigan har hil gazlamalar (matolar, to'qimalar, trikotaj buyumlari, attorlik buyumlari, pahtasimon mahsulotlar) va boshqalar kiradi. Materialshunoslik fani amaliy fan bo'lganligi uchun asosan himiya, hikmat, riyoziyot kabi aniq fanlarni rivojlanishi asosida o'sib boradi va bu fanlar bilan chambarchas bog'liqdir, chunki materialshunoslikda qo'llanuvchi usullar himiya fani usullariga tayansa, unda qo'llanuvchi asbob - uskunalar hikmat faniga tegishli tajribadan olingan dastlabki natijalarni jamlash tegishli qonuniyatlarni mujassamlash riyoziyot fani qoidalaridir. Materialshunoslik fanining halq ho'jaligida ahamiyati beqiyosdir. Chunki ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini oldindan loyihalash, mahsulotni olish uchun sarflanadigan hom ashyo masalalarini aynan shu fan qiladi. Shuning uchun ham har bir tehnolog va iqtisodchi o'zining mutahasislik fanlari bilan o'rghanadilar. Tikuvchilik materialshunoslik fani barcha turdag'i tikuvchilik buyumlarini sanoatlashgan holda ishlab chiqarishdan buyon tikuvchilik buyumlari uchun ishlatiluvchi materiallarni olinishi tehnologiyasi ularni tuzilishi sifati va turlari haqida ma'lumot beradi shu jumladan materiallarni sifat, hususiyatlarini aniqlash usullari va uskunalar bilan ishlash usullarini o'rgatadi. Tikuvchilik sanoatida ishlatiladigan materiallarni barchasini vazifasiga ko'ra 6 guruhga bo'lishlik qabul qilingan:

1. Asosiy kiyimlar - kiyimlarni ustki qismiga ishlatuvchi materiallar (Gazlamalar, sun'iy va tabiiy mo'yinalar, charmlar).
2. Astarli va katbob (prikladochniy) materiallar turli hildagi pahtadan, tabiiy va sun'iy ipakdan ishlab chiqarilgan shoyi va yupqa, catin trikotaj usulida to'qilgan matolar.
3. Kiyimning issiqlik saqlay olishini oshiruvchi materiallar (pahta, vatin, sun'iy mo'yinalar).
4. Kiyim bo'laklarini biriktirish uchun ishlatuvchi materiallar (iplar, kalava, elimlovchi moddalar).

5. Bezik materiallari (Jiyaklar, tasmalar, turli hildagi bog'ichlar).
6. Yordamchi materiallari (Tugma, iplar).

Yuoqorida nomlari keltirilgan tikuvchilik materiallari asosan to'qimachilik sanoati mahsulotlari bo'lib, asosan tolalardan ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham tikuvchilik materialshunoslik fanining boshlang'ich qismida to'qimachilik tolalarinig tuzilishga va boshqalarga katta e'tibor beriladi.



Pardozlash jarayonida gazlamaning qalinligi o'zgarishi mumkin. Bosish, tuk chiqarish, appretlash kabi pardozlash operatsiyalari gazlamani qalinlashtiradi, tuk kuydirish, presslash, kalandrash kabi operatsiyalar uni yupqalashtiradi. Yuvish va xo'llash natijasida tanda va arqoqning bukilganlik darajasi oshadi, gazlama kirishadi, shuning uchun qalinlashadi.

Gazlamaning qalinligi 0,1-3,5 mm chamasida bo'ladi. U maxsus pribor - qalinlik o'lchagich bilan o'lchanadi. Qalinlik o'lchagichlarning bir necha xili bor, lekin ularning ishlash printsipi bir xil. Gazlama namunasi ikkita yaltiroq plastinka orasiga qo'yiladi; plastinkalardan biri qo'zg'aluvchan bo'lib, priborning strelkasiga mahkamlangan. Strelka tsiferblatda surilib, materialning qalinligini millimetrdaga ko'rsatadi.

Pribor plastinkalari ta'sirida bo'sh gazlamalar osongina qisilishi va yupqalashishi mumkin. Shuning uchun yangi universal qalinlik o'lchagichlarda gazlamalarga tushadigan kuchni rostlab turadigan moslama bor. Gazlamalarning qalinligini 0,1-0,2 kPa bosim bilan o'lchash tavsiya qilinadi.

Gazlamaning qalinligiga qarab model tanlanadi va yangi konstruktsiyalar ishlab chiqiladi. Qalin gazlamalardan to'g'ri va kengaytirilgan bichimli buyumlar tikish tavsiya qilinadi, relefli choclar chiqarish, shakldor koketkalar, o'yma cho'ntaklar qilish tavsiya qilinmaydi. Yupqa gazlamalardan loyihalanadigan modellar turli-tuman va murakkab bo'lishi mumkin.

Gazlamaning qalinligi qo'yimlar qiymatiga, chocklarning eni va tuzilishiga ta'sir qiladi.

Kiyimlarni ko'plab bichishda gazlama taxlaming qatlamlari soni gazlamaning qalinligiga bog'liq bo'ladi. Draplar, bobriklar 12-24; bostonlar, kostyumlik kreplar 30-40; chitlar, satinlar, poplinlar 100-150; yupqa ich kiyimlik gazlamalar 200 gacha qatlam qilib bichiladi.

Ignalar, g'altak iplarning xili va miqdori, qaviqqatordagi bahyalarning siyrak-zichligi, ho'llash-dazmollash rejimi ham gazlamalarning qalinligiga qarab tanlanadi. Qalin gazlamalar uchun yo'g'on iplar ishlatish, bahyalarni siyrak olish tavsiya qilinadi. Qalin gazlamalar uchun ho'llash-dazmollash vaqtida uzoqroq olinadi. Qalin gazlamalarda adip qaytarmasini tikish, etakni yashirin bahyalar bilantikish oson.

## Gazlamalarni eni

**Gazlamalarning eniga qarab modul tanlanadi, yangi konstruktsiyalar ishlab chiqariladi, andozalar qo'yiladi.**

Gazlamalarning standart va haqiqiy enlari bo'ladi. Gazlamaning standart eni – bu gazlamaning GOSTda belgilangan eni normasi. Gazlamaning haqiqiy eni – gazlamani bevosita o'lchab aniqlanadigan eni. Gazlamani eni buklanmaydigan chizg'ich yordamida 0,5 sm aniqlik bilan o'lchanadi.

Gazlamani qatlam-qatlam qilib qo'yib bichishda eni har xil bo'lsa, brakka olib keladi. Gazlamalar to'vida va partiyasida har xil bo'lsa, bichish qiyinlashtiriladi va mehnat unumдорligini kamaytiradi.

Andozalar orasida eng kam chiqindi chiqadigan gazlama eni ratsional eni deb ataladi. Turli gazlamalarning standart va ratsional eni jadvalda keltiriladi.

Gazlamalarni ishlatalishi	Tola tarkibi	Gazlamaning standart eni sm.
Erkaklar va bolalar ichki kiyimi.	Paxta Zig'ir	62-140 80-140
Gazlamalar ichki kiyimi ko'yvak	Paxta Zig'ir Zig'ir Shoyi	58-120 62-140 80-150 85-110
Ayollar ko'ylagi	Paxta Zig'ir Shoyi Jun Jun	80-140 80-140 65-130 71-152 82-150
Palto Astar	Paxta Shoyi	62-150 70-140

### **Gazlamalarning massasi**

Gazlamalarning massasi uni tayyorlash uchun qancha xom ashyo ketishini ko'rsatadi.  $1\text{ m}^2$  gazlamaning massasi 25 dan 800 g gacha bo'ladi. Eng yengil gazlamalar – gaz, ekstselsior, shifon. Eng og'ir gazlamalar – shinellik movot, draplar.

Gazlamalarning massasi  $1\text{ pog m da}$  va  $1\text{ m}^2 \text{ da}$  o'lchanadi.  $1\text{ pog m}$  gazlamaning massasi, quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$G_1 = m * 1000 / L$$

M- gazlama namunasining massasi g.

L- gazlama namunasining uzunligi mm.

$1\text{m}^2$  gazlamaning massasi esa:

$$G_2 = m * 10^6 / L * b$$

M- namunaning massasi g.

L- namunaning uzunligi mm.

V- namunaning eni mm.

Gazlamaning nimaga ishlatalishi uning massasiga qarab aniqlanadi:

a) engyengil gazlamalar – ichki kiyimlar, bluzkalar, ko'yvaklar;

b) eng og'ir gazlamalardan shinellar, paltolar tikiladi.

Gazlamalarning massasi kiyim tikish jarayoniga ta'sir qiladi. Og'ir gazlamalarni bichish, tikish, dazmollash ancha qiyin bo'ladi.

## Gazlamalarni uzunligi

To'quv stanogida to'qilayotgan gazlama ma'lum uzunlikdan qiyin kesiladi, natijada ma'lum uzunlikdagi gazlama to'plari hosil bo'ladi. To'qimachilik korxonalarida gazlama to'plari 10-150 m gacha ishlab chiqariladi. Gazlamalarni bichish paytida qoldiqsiz foydalilanidigan yoki chegarasida chiqindi chiqadigan uzunlik ratsional uzunlik deyiladi. Gazlamalarning sortini aniqlash paytida gazlama to'pining – shartli uzunligi hisobga olinadi. Gazlama to'pining uzunligi braklash o'lhash mashinasida aniqlanadi.

### **2-Мавзу: Тикувчилик материалшунослиги тўғрисида умумий маълумотлар.**

Маъруза машғулотининг таълим технологиясининг модели.

<b>2- машғулот</b>	Тикувчилик материалшунослиги тўғрисида умумий маълумотлар
<b>Ўқув соати:</b> 2 соат	<b>Талабалар сони:</b>
<b>Ўқув машғулотининг шакли</b>	<b>Ахборотли маъруза</b>
<b>Машғулотининг режаси:</b>	1. Тикувчилик материалшунослиги синфланиши. 2. Бириктирувчи материаллар. 3. Тўқима ва нотўқима материаллар.
<b>Ўқув машғулотининг мақсади:</b>	Тикувчилик материалшунослиги тўғрисида умумий маълумотлар тўғрисида назарий кўникма хосил қилиш.
<b>Педагогик вазифалари:</b> 1) Тикувчилик материалшунослиги синфланиши тўғрисида тушунча бериш 2) Бириктирувчи материаллар тўғрисида маълумот бериш. 3) Тўқима ва нотўқима материаллар тўғрисида маълумот бериш.	<b>Ўқув фаолиятининг натижалари:</b> 1) Тикувчилик материалшунослиги синфланиши тўғрисида тушунчага эга бўладилар. 2) Бириктирувчи материалшунослиги тўғрисида маълумотга эга бўладилар. 3) Тўқима ва нотўқима материаллар тўғрисида маълумотга эга бўладилар.
<b>Таълим усуллари</b>	Маъруза, тезкор сўров, намойиш этиш, сухбат.
<b>Таълим воситалари</b>	Ўқув қўлланма, слайдлар,
<b>Ўқитиши шакллари</b>	жамоавий, гурухларда ишлаш.
<b>Ўқитиши шарт-шароити</b>	Техник воситалар ва гурухларда ишлашга мўлжалланган аудитория

### **Ўқув машғулотининг технологик харитаси**

<b>Ишининг босқичлари ва вақти</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
	<b>Ўқитувчининг</b>	<b>Талабаларнинг</b>
<b>1. Кириш қисми.</b> (15дақика)	1.1 Мақсад ва режалаштирилган ўқув натижалари билан таништириш	Диққат қиласи ва ёзиб оладилар.
	1.2 Маъруза режаси билан таништиради.	Тинглаб ёзиб оладилар.
	1.3 Талабаларга ўтилган мавзу юзасидан тезкор саволлар беруб билимларини текшириш Жавобларни биргаликда умумлаштиради ва асосий маъруза мавзусига ўтилади.	Тинглаб саволларга жавоб берадилар.

<b>2. Асосий қисм</b> (55 дақика)	2.1 Тикувчилик материалшунослиги синфланиши	Тинглаб, ёзіб оладилар ва унга Кластер тузадилар.
	2.2 Бириктирувчи материаллар	Тинглаб, ёзіб оладилар ва ундағы Кластерни чизиб, түлдириб борадилар
	2.3 Тұқима ва нотұқима материаллар	Талаба үқитувчини тинглаб ёзіб оладилар
<b>3. Яқунловчи қисм.</b> (10 дақика)	3.1 Мавзу бүйича якуний хulosаса ясайди, мұхым жиҳатларға иштирокчилар диктатини жалб қиласы, мавзу юзасидан саволларға жавоб беради.	Тинглайдилар
	3.2 Гурұх фаолларини, алохіда иштирокчиларни баҳолайды, үзаро баҳолаш натижалари бүйича хulosасы қиласы.	Тинглаб, ёзіб оладилар.
	3.3 Ықув машгұлотининг мақсадига эришиш даражасини таҳлил қиласы ва баҳолайды.	Тинглайдилар
	3.4 Уй вазифа беради: Мавзу бүйича «Кластерга» тузиб келиш.	Тинглаб, ёзіб оладилар.

**Дарс режаси:**

**1. Тикувчилик материалшунослиги синфланиши .**

**2. Бириктирувчи материаллари**

**3. Тұқима ва нотұқима материаллар.**

**Таянч түшүнчалар:** Ассортимент, камвол, мовут, креп, шойи полотно, күйлаклик газламалар, қотирмалик газламалар, нотұқима ва тұқима, жаккард, артикул.

**Текис механизмлар кинематикасининг асосий масалалари**

Ishlab chiqarish usuliga qarab, jun gazlamalar kamvol va movut gazlamalarga bo'linadi. Kamvol gazlamalar qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipdan to'qilgan. Bunday gazlamalar jun gazlamalar ichida yupqa vayengil hisoblanadi, ularning o'riliш naqshi yaqqol bilinib turadi.

Jun gazlama artikulidagi birinchi raqam gruppasi bildiradi, ya'ni ishlab chiqarish usuli va tola tarkibiga mos keladi. Artikuldagagi ikkinchi raqam kichik gruppasi bildiradi, ya'ni gazlamaning nimaga ishlatalishini ko'rsatadi.

Yangi strukturali va o'riliш naqshli gazlamalar ishlab chiqarish hamda klassik strukturalari gazlamalarning tashqi ko'rinishi va plastik xossalarni yaxshilash hisobiga jun gazlamalar assortimenti yangilab turiladi. Assortimentni rivojlantirishdagi yangi yo'naliishlari ipaksimon silliq mayin plastik gazlamalar, ko'p rangli melanj kalava ipdan tekis sirtli gazlamalar, shakldor kalava ipdan mayda relefli, g'adir-budur yoki tekis sirtli gazlamalar, tukli, shu jumladan, bahmalsimon sirtli gazlamalar to'qish bilan bog'liq.

Kuzgi, bahorgi assortimentdagi ayollar kostyumlari tikish uchun tuguncha-tugunchalari, halqasimon, buramdar kalava ip, yo'g'onlashgan joylari bor kalava ip ishlatib to'qilganyengil ko'yaklik gazlamalar tipidagi gazlamalar ishlab chiqarishadi.

**Kamvol gazlamalar**

Kamvol gazlamalar ko'yaklik, kostyumlik va paltolik xillarga bo'linadi. Bularning ichida kostyumlik kamvol gazlamalar ko'proq ishlab chiqariladi. Pishitilgan kalava ipdan to'qilgan, nisbiy zinchligi katta bo'lgan kamvol gazlamalarni tikuvchilikda ishlatish ancha murakkab:

taxlanganda sirpanib ketadi, titiluvchn bo'ladi, tikish paytida choklarda o'yiqlar paydo bo'lishi mumkin, dazmollab kirishtirish va kengaytirish ancha qiyin, yaltiroqlik hosil qilishi mumkin.

### **Ko'yaklik gazlamalar.**

Ko'yaklik kamvol gazlamalaryengil bo'ladi, o'rilib naqshi aniq bilinib turadi, ular 15-31 teksli yakka kalava ipdan va 15 teksli X2-31 teks X2 li pishitilgan kalava ipdan silliq, mayda gulli va yirik gulli o'rilihsarda to'qiladi.

*Kreplar* – sidirg'a yoki gulli, yupqa, qayishqoq gazlama. Krep tipida pishitilgan kalava ipdan mayda donli sirtli qilib to'qiladi. Krep turli o'rilihsarida to'qiladi; nisbiy zichligi uncha katta emas; eni 90, 106, 142, 152 sm; 1 m<sup>2</sup> gazlamaning massasi 194-220 g.

*Jemchug* – pishitilgan kalava ipdan mayda gulli o'rilihsda to'qilgan sidirg'a bo'yalgan gazlama. Eni 142 sm, 1 m<sup>2</sup> gazlamaning massasi 228 g.

*Novost* – kalava ipning xili va sirtki zichligi jihatidan Jemchug gazlamasiga o'xshagan, lekin yirik gulli o'rilihsda to'qiladigan gazlama.

*Iriada* – sidirg'a bo'yalgan, yirik gulli o'rilihsdagi gazlama. Tandasi pishitilgan kalava ipdan, arqog'i yakka kalava ipdan to'qilgan.

*Turayda* – sidirg'a bo'yalgan, gullari yirik gulli o'rilihsda to'qilgan, gullari yirik romb shaklidagi gazlama.

*Ladya* – sidirg'a bo'yalgan, siyrak, yupqa, polotno o'rilihsdagi gazlama; har xil nomerli kalava iplardan 5 mm<sup>2</sup> o'lchamli kataklar hosil qilingan.

Ko'yaklik-kostyumlik jakkard gazlama «Fantaziya» - sidirg'a bo'yalgan qalin, yirik gulli o'rilihsdagi gazlama. Tandasi 19,2 teks X2 li pishitilgan kalava ip va arqog'iga 31 teksli yakka kalava ip ishlatilgan.

Ko'yaklik yarim jun gazlamalar tuzilishi va bo'yalishi jihatidan turli tuman bo'ladi. Aralash junli kalava ip va ximiavyiy kompleks iplar qo'shib pishitilgan kalava ipdan to'qiladi. Junning miqdori 20-80%. Bu gruppadagi ko'pgina gazlamalar tarkibida 20-50% lavsan bo'ladi.

*Kashemirlar* – eng tipik yarim jun ko'yaklik gazlamalar. Ular sidirg'a mayin bo'ladi, sarja o'rilihsda to'qiladi. Maktab formasi tikish uchun ishlatiladi.

*Lyuks gazlamasi* ko'p yillardan beri ishlab chiqariladi; mayda gulli o'rilihsda to'qilgan; sidirg'a tarkibida 70% jun va 30% shtapel viskoza tola bo'ladi. Eni 142sm, 1m<sup>2</sup> gazlamaning massasi 271 g.

«Paxra» - yupqa, yarim shaffof, mayda gulli o'rilihsdagi xom (sarg'ish) gazlama. Zichroq joylashgan kalava iplar sezilar-sezilmas katak hosil qiladi. Tarkibida 40% jun, 45% nitron va 15% kapron bor.

«Tamara» - sidirg'a bo'yalgan, sirti mayda donli, krep o'rilihsidagi gazlama. Tarkibida jun (43%) nitron kapron bor; 1m<sup>2</sup> gazlamaning massasi 197g.

Quyida shu assortimentdagi eng tipik gazlamalarning xarakteristikasi keltirilgan.

«Proxlada» - yupqa, mayin, polotno o'rilihsli, katak-katak gulli gazlama. Tandasi va arqog'iga 22 teks X 2 li kalava ip ishlatilgan.

«Yashma» gazlamasi «Proxlada» gazlamasiga o'xshaydi, lekin mayda gulli o'rilihsda to'qilgan. 1m<sup>2</sup> gazlamaning massasi 187g.

*Ko'yaklik shakldor gazlama* – ko'p rangli tugunli kalava iplardan hosil qilingan yirik katakli guldor gazlama. Tarkibida jundan tashqari nitron, kapron, viskoza tolalar bor. Tarkibida 60% jun va 40% lavsan bo'lgan 25 teks X 2 li kalava ipdan mayda gulli o'rilihsda katak-katak yoki yo'l-yo'l gulli ko'yaklik «Raduga» va yirik gulli o'rilihsda bo'ylama naqshli «Liena» gazlamalari to'qiladi.

### **Shoyi gazlamalar assortimenti**

Tolalarning tarkibi, tuzilishi va pardozlanishi jihatidan shoyi gazlamalar turli-tuman bo'ladi. Shoyi gazlamalar assortimentining 98% ini ximiavyiy tolalardan to'qilgan gazlamalar tashkil qiladi. Shoyi gazlama artikulining birinchi raqami gruppera nomerini, ya'ni tola tarkibini, artikulning ikkinchi raqami kichik gruppera nomerini, ya'ni gazlamaning tuzilishi va nimaga

ishlatilishini ko'rsatadi. Barcha shoyi gazlamalar artikuli besh raqamdan iborat bo'ladi. Oxirgi ikkita gruppasi shtapel gazlamalar tashkil qiladi.

Shoyi gazlamalar assortimenti tez-tez o'zgarib turadi. Ularning assortimenti elastik, hajmdor va profillangan sintetik iplar ishlatish o'rinish turlarini murakkablashtirish, shoyi gazlamalarni pardozlashning har xil usullari hisobiga kengayadi.

Chiroli ko'yaklik va ko'yaklik-kostyumlik gazlamalar ishlab chiqarish uchun atsetat yoki triatsetat toladan olingan iplar va yarqiroq metall iplar qo'shilgan teksturalangan iplar, profillangan kapron qo'shib pishitilgan triatsetat ipakdan qilingan hajmdor iplar keng qo'llaniladi.

Astarlik gazlamalar assortimenti viskoza, asetat, viskoza-asetat iplardan atlas o'rinishda, shuningdek, mayda gulli va har xil yirik gulli o'rinishlarda to'qilgan gazlamalar ishlab chiqarish kengaymoqda.

### **Ipakdan to'qilgan gazlamalar**

Ipak gazlamalar ko'pincha yo'g'onligi 1,5-2,3 teksli ingichka xom ipakdan, pishitilgan tabiiy ipak va ba'zi gazlamalarga ipak kalava ipdan polotno o'rinishda to'qiladi.

Tabiiy shoyi gazlamalar asosan sidirg'a yoki gul bosilgan tarzda ishlab chiqariladi, nisbiy zichligi uncha katta bo'lmaydi; ayollar ko'yaklari murakkab modelli bluzkalar tikish uchun ishlatiladi.

Preyskurant bo'yicha tabiiy shoyi gazlamalar gruppasi krep, glad, jakkard, tukli va maxsus kichik gruppalarga bo'linadi.

Krep gazlamalar eng ko'p ishlatiladi.

*Krepdeshin* – sidirg'a yoki gul bosilgan yupqa shaffofmas gazlama; sirti mayda donli; tandasiga xom ipak ishlatilganidan o'ziga xos tovlanib turadi.

*Krep-shifon* – yupqa,yengil, shaffof, sutrang, sidirg'a yoki guldor gazlama; tandasi va arqog'iga ipak – krep ishlatilib, polotno o'rinishda to'qiladi.

*Krep-jorjet* – krep-shifonga qaraganda bir oz zichroq, qalinroq va noshaffofroq gazlama. Yo'g'onroq krepdan polotno o'rinishda to'qiladi.

Glad kichik gruppasiagi gazlamalar ichida shoyi-polotno eng keng tarqalgan. Tandasiga xom ipak, arqog'iga bo'sh pishitilgan ipak ishlatib tual va fulyar ishlab chiqariladi.

*Shoyi-polotno* – xom yoki guldor gazlama; tandasi va arqog'iga ipak kalava ip ishlatib, polotno o'rinishda to'qiladi.

Jakkard gazlamalar jumlasiga bezak gazlamalar kiradi. U ipak kalava ipdan tukli o'rinishda to'qilgan. Tuklarning bo'y 1-2mm; gazlamaning eni 70,90,135sm,  $1m^2$  gazlamaning massasi 190g.

### **Zig'ir tolali gazlamalar assortimenti**

Zig'ir tolali gazlamalar assortimentining 28% ini maishiy gazlamalar, 40% ini o'rov gazlamalari, 32% ini texnik gazlamalar tashkil etadi. O'rov gazlamalari juda puxta bo'ladi va buyumlarni o'rash uchun ishlatiladi. Zig'ir tolali texnik gazlamalarga brezent parusina, dag'al polotno, bortovka va boshqalar kiradi.

Zig'ir tolali – lavsan gazlamalar assortimenti kengayotganligi va bunday gazlamalar borgan sari ko'proq ishlab chiqarilayotganligi sababli ko'yaklik-kostyumlik zig'ir tolali gazlamalar yildan-yilga qo'llanilmoqda.

Tarkibida 25-67% shtapel lavsan o'rigan zig'ir tolali – lavsan gazlamalar va kompleks iplar tarzida viskoza lavsan yoki kapronli gazlamalar ishlab chiqarilmoqda.

Yangi har xil ximiyaviy tolalarni tabiiy tolalarga aralashtirib, mayin, plastik,yengillashtirilgan strukturalar yaratilishi hisobiga zig'ir tolali gazlamalar assortimenti kengayadi.

Bo'yalishi jihatidan zig'ir tolali gazlamalar xom, yarim oq, oqartirilgan va sidirg'a bo'lishi mumkin. Guldor va gul bosilgan zig'ir tolali gazlamalar kamroq ishlab chiqariladi.

Zig'ir tolali gazlamalar ishlab chiqarish uchun ip gazlamalarga qaraganda dag'alroq kalava ip ishlatiladi. Zig'ir tolali gazlamalar yo'g'onligi 18-166 teks (№55-6) li kalava ipdan to'qiladi.

Gruppa Nomeri	Gruppa	Gazlamaning kichik gruppasi (artikulning 3 ra)	
		Zig'ir tolali	Yarim zig'ir tolali
01	Enli jakkard gazlamalar	1	2
02	Ensiz jakkard va karetkabop gazlamalar	1	2
03	Xolstlar va silliq sochiqlar	1	2
04	Oq va yarim oq ensiz polotnolar	1	2
05	Oq va yarim oq enli polotnolar	1	2
06	Kostyumlik-ko'yaklik gazlamalar	1	2
07	Yupqa xom polotnolar	1	2
08	Guldor polotnolar	1	2

Zig'ir tolali gazlamalarning strukturasi turg'un bo'ladi, uncha zich cho'zilmaydi, pishiq, cho'zishga chidamli bo'lib, tovlanib turadi. Zig'ir tolali gazlamalar oson taxlanadi, qiyshayib ketmaydi, lekin ularni qirqish qiyin.

### Zig'ir tolali polotnolar

Polotno – eng tipik zig'ir tolali gazlama. Polotno oq va yarim oq sof zig'ir tolali va ip gazlama asosidagi yarim zig'ir tolali qilib ishlab chiqariladi. Yarim zig'ir tolali gazlamalardan farqli ravishda sof zig'ir tolali polotnolar ancha pishiq, og'ir, dag'al va tovlanuvchan bo'ladi.

Sof zig'ir tolali polotnolar ishlab chiqarish uchun faqat ho'l yigirligan 18-166 tekslikalava ip ishlatiladi. 1m<sup>2</sup> polotnoning massasi 106-300g. Ensiz polotnolarning eni 80, 90sm, enlilarniki 138-200sm.

Polotnoni tikuvchilikda ishlatish qiyin emas: taxlanganda cho'zilmaydi, qiyshaymaydi, lekin sirpanishi mumkin. Zich polotnolarni kesish ancha qiyin. Polotnolarni tikishda 110-130 nomerli ignalar, 34-60 nomerli g'altak iplar ishlatish tavsiya qilinadi. Yuvganda polotnolar tandasi va arqog'i bo'yicha 3-7% kirishadi.

### G'altak iplar

G'altak iplar (tikuvchilik iplari) gazlamalar, trikotaj, suniy charm,zamsha va mo'ynadan tikiladigan turli buyumlarining detallarning biriktirish uchun ishlatiladi.

G'altak iplar paxta, zig'ir tolalari va sinetik tolalaridan tayyorlanadi. Tikuvchilik sanoatida paxta tolalaridan tayyorlangan g'altak iplar eng ko'p ishlatiladi. Sinetik iplar ishlab chiqarish va qo'llash yildan-yilga kengaymoqda. Ipak ip asosan, shoyi ko'yak va bluzkalar tikishda, jun buyumlar tikayotganda yolg'on qaviq qator tushirishda, plitalar (tugma teshiklari) ziylarni ko'klassha pardoz chocclarini yo'rmashda ishlatiladi. Zig'ir tolali iplar poyabzal sanoatida, brezentni tikishda, shuningdek, tikuvchilik sanoatida maxsus buyurtmalarni bajarishda ishlatiladi.

Tikish paytida g'altak iplar taranglanadi, mashina ignasiga, tikiladigan materiallarga ipni, yo'naltiruvchi detallarga ishqalanadi, natijada ularning strukturasi bir oz o'zgaradi va pishiqligi 10-40% pasayadi. Tozaligi katta mashinalarda ishlatilganda sintetik iplar qiziydi, chunki ishqalanish natijasida mashina ignalari qizib ketadi.

Tikuvchilik buyumlarini kiyish, yuvish va ximiyaviy tozalash jarayonida g'altak iplar ular ishqalanadi, takror-takror cho'ziladi va buriladi, shuningdek turli xil ximiyaviy moddalar ta'siriga uchraydi. Tarang tortilgan qavatda ip doimo cho'zuvchi ip ta'sirida bo'ladi, natijada pishiqligi ancha yo'qoladi. Agar qaviq bo'sh bo'lsa, ip buyum sirtiga chiqib qolib, kiyish jarayonida atrofdagi narsalarga ishlanadi.

Tikuv mashinalarning ishi va tikilgan buyumlarining sifati ko'p jihatdan g'altak iplarning sifatiga bog'liq. Shuning uchun g'altak iplarning tuzilishi va fizik ximiyaviy xossalariga yuqori talab qo'yiladi. Eng asosiy talab shuki, g'altak iplar juda pishiq bo'lishi kerak ular tekis, silliq, qayishqoq bo'lishi, rangi aynimasligi, burami bo'shalib ketmasligi ximiyaviy turg'un va issiqliga chidamli bo'lishi lozim.

## Paxta iplar

Paxta iplar qayta tarash usulida yigirilgan yuqori sifatli xom ipni eshish, pishitish va pardozlash yo'li bilan olinadi. Iplar 3,6,9 va 12ta yangi ipni qo'shib tayyorlanadi. Tikuvchilik sanoatida asosan 3va 6ta ipni qo'shib tayyorlangan g'altak iplar ishlataladi.

Eshish 2-3ta yakka ipni qo'shish va bir g'altakka qayta o'rashdan iborat: Eshish jarayonida kalava ipning nuqsonlari yo'qoladi va ipni tashkil qiluvchi yakka iplar bir teks taranglanadi.

Pishitish- iplarning bir tekisligi pishiqligini oshirish va xom ipning buramini mustahkamlash maqsadida tashkil etuvchi yakka iplarni burashdan iborat. Pishitishdan oldin iplar ho'llanaadi, shunda sirti ancha silliq chiqadi. Uchta yakka ipni qo'shib g'altak ip tayyorlashda eshishdan so'ng iplar xom ipning buramiga teskari buraladi. G'altak ip 6ta yakka ipdan tayyorlanganda oldin ikkitadan ip qo'shib buraladi, so'ngra buralgan uch juft ipni qo'shib, xom ipning buramiga teskari buraladi. Shunda g'altak ipning burami bo'shalib ketmaydi burami yaxshi mustahkamlanmagan g'altak iplar tikish paytida halqalar hosil qiladi (mashina ip tanlaydi) va tez-tez uziladi.

G'altak ipni pardozlash jarayoni, qaynatish, oqartirish, bo'yash operatsialash va yaltiratish operatsialarini o'z ichiga oladi.

Qaynatish ipni yuvuvchi ishqorda bosma ostida qaynatib toladagi qutikulani kir va yog' moddalarni ketkazishdan iborat.

Oqartirish operatsiasi faqat oq va och rangga bo'yalgan iplar uchungina bajariladi. Iplar natriy gipoxloridda oqartiriladi, so'ngra sulfat kislota bilan ishlanadi. G'altak iplar oddiy bo'yoqlar bilan bo'yalib keyin DDU, DDG va kub bo'yoqlar bilan bo'yaladi. G'altak iplar mayin qilib pardozlanib, sutrang va yaltiroq qilib chiqarilishi mumkin. Sutrang iplar sal-pal tovlanadt, chunki yupqa parafin qatlama yoki ozgina kraxmal qo'shilgan (yoki kraxmalsiz) rangsiz moy bilan qoplanadi. Yaltiroq iplar tarkibida kraxmal, yopishtiruvchi moddalardan, mum sterin bo'lган tarkib bilan appretlanadi. Qattiq qilib pardozlangan yaltiroq ip olish uchun appret tarkibida kraxmal miqdori yemiriladi.

Tayyor iplar yaroqli-yaroqsiz ajratiladi va g'altaklar yoki gilzalarga ayqash qilib o'raladi. Savdo tarmoqlariga yuboriladigan yog' och g'altakli iplarning uzunligi 20m, tikuv fabrikalarga yuboriladigan bobinalar iplarning uzunligi 400, 500, 1000, 3500 va 6000m bo'ladi.

Qo'shib eshiladigan iplar soniga qarab, paxta iplar 3,6,9,12 qo'shimli bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimiz, tikuvchilik sanoatida asosan 3 va 6 qo'shimli iplar ishlataladi.

G'altak iplarning va ularning uzilishiga pishiqligi ularning asosiy sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Iplarning pishiqligi yakka organoleptik usulida aniqlash uchun 0,5 m uzunlikdagi g'altak ip namunasini qo'lda cho'zib va uzib ko'rildi. Agar ip pishiqligi bo'lsa, qo'lda cho'zib bo'shatilganda purjinalanishi ancha kuch ishlatilgandan keyingina uzilishi kerak. Ipning pishiqligiga qo'shishlar soni, oqartirish, bo'yash, appretlash protsesslari ta'sir qiladi. Hom va oq iplar qora va rangli iplarga qaraganda pishiqlroq. Yaltiroq iplar sutrang iplardan pishiqligi bo'ladi. Qanday kuchga chidashiga qarab uch qo'shma iplar «ekstra» va «prima» markalarga bo'linadi. «Ekstra» markali iplar pishiqlroq bo'ladi. Olti qo'shimli g'altak iplarning pishiqligi uch qo'shimlilarnikidan ancha yuqori. Ular faqat «speitsalnaya» markada chiqariladi. Qo'shishlar soni va pishiqligiga qarab g'altak, gilza va bobinalarga har xil rangli etiketka: olti qo'shimli ipaklarga qizil «ekstra» markali uch qo'shimli markalarga jigarrang va «prima» markali iplarga yashil etiketka yopishtiriladi.

Ipning cho'ziluvchanligi nomeriga, burami, qo'shishlar soniga pardozlash xarakteriga bog'liq. Cho'ziluvchanlik 3-8,5% bo'lismiga qo'yiladi.

Iplarning burami va buramalarining mustahkamligi tikuv mashinasida qaviq hosil qiladi hosil qilish jarayonida ta'sir qiladi. G'altak iplarning o'ng va chap buramli xillari bor. 97kg. OZLM va 797kg. OZLM tikuv mashinalari uchun faqat o'ng buramli iplar talab qilinadi.

Bir tekislik – iplarning yo'g'onligi pishiqligi, cho'ziluvchanlik jihatidan notejisligi 6-9,5%, og'irligi jihatidan notejisligi 3% gacha bo'lismiga yo'l qo'yiladi.

Tashqi nuqsonlarga qarab, g'altak iplar 1 va 2 sortlarga bo'linadi. Iplarning sortini aniqlash uchun 100ta g'altak yoki bobinani ko'zdan kechirib chiqiladi.

Ustki kiyim tikishda ba'zi operatsiyalarni (detallarni ko'klash, ziylarini ko'klash, qirqimlarini yo'rmash va hokazo) bajarish uchun g'altak iplar o'rniiga 15,3 teks x 3-37 teks x 3li pishitilgan xom paxta kalava ip ishlatish mumkin.

### **Ipak iplar**

Ipak ip xom ipakni ikki qayta pishitib olinadi. Oldin bir nechta xom ipakni qo'shib buraladi, keyin shu buralgan iplarini uchtadan qilib birlashtirib, oldingi buramga teskari buraladi.

Ipak ip 65,33va 18 savdo nomerlarida ishlab chiqariladi. Ipak ipning metrik nomeri savdo nomeridan bir oz kichik bo'ladi. 65,33-nomeri ipak ip, odatda yupqa gazlamalardan kiyim tikishda biriktiruvchi qaviqlar uchun ishlatiladi.

Petlyalarni qo'lda yo'rmash, kesiklarini chatish, tugmalarini qadash va bezak bahyalar uchun yo'g'on pishitilgan tabiiy ipak 3 va 7- nomerli garus ishlatiladi. Garusning chiziqli zichligi 338 yoki 143teks bo'ladi va u 90ta xom ipak tolalarini qo'shib tayyorlanadi. Har xil rangdagi 8-50m li kalavalar tarzida ishlab chiqariladi.

Shtapel polinoz tolalardan tayyorlangan iplar mayin tovlanuvchan quruq va ho'l holatda viskoza iplarga qaraganda pishiqroq, yuvishga chidamli, quruq (8-10%) va ho'l(10-12%) holatda kam cho'ziluvchan bo'ladi.

### **Sintetik iplar**

Tikuvchilik sanoatida ishlatiladigan iplarning assortimenti ximiyaviy tolalardan iplar tayyorlanish hisobiga yildan-yilga kengaymoqda. Ko'p xossalari jihatdan tabiiy g'altak iplardan ustun turadigan sintetik iplar keng qo'llanilmoqda.

Kapron iplarning uzilishiga pishiqligi tabiiy ipak va paxta iplarning pishiqligidan 1,5-2 marta yuqori. Mavjud barcha g'altak iplarga qaraganda kapron pishiqlanishiga chidamligi eng yuqori bo'lganidan ular petlyalardan yo'rmash uchun ishlatiladi.

Sintetik materiallardan buyumlar tayyorlashda kapron iplar eng ko'p ishlatiladi.

Jadvalda kapron iplarning ishlatishga doir ma'lumotlar keltirilgan. Kapron iplarning xossalari tekshirish asosida ularning o'rniiga issiqliga chidamliroq iplar ishlatish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

<b>Buyum</b>	<b>Operatsialar</b>	<b>Ishlatilish</b>
Erkaklarning qishki va mavsum-bop paltolari.	Petlyalarni yo'rmash kesiklarni chatish, bo'sh gazlamalardan tikilgan yuqori sifatli mavsumbop paltolarning yoqalarini qo'lda o'tqazish.	Ustki ip kaprondan, pastki paxta ipdan.
Erkaklarning tilmaydigan gazla madan tikilgan kostyumlar va yozgi paltolar.	Petlyalardan yo'rmash, kesiklarni chatish.	Shuning o'zi.
Erkaklarning pelaksdan plyonka qoplamlili plashlik gazlamalardan (re-zina	Shuning uchun . Barcha operatsiyalar.	Ustki va pastki iplar kaprondan

aralash tiril-gan) plashlar	Shuning o'zi.	
Forniz pardozli buyumlar.		Shuning o'zi.

Aralash (qarsak) iplarning sintetik kompleks tolalardan qilingan o'zagi bo'ladi; o'zak paxta tolalari yoki polinoz tolalar bilan qoplanadi. Karkas iplar tarkibida 70% sintetik tolalar 30paxta yoki polinoz tolalar bo'ladi.

Aralash iplar paxta iplardan pishiqroq, ikki marta cho'ziluvchan bo'ladi. Karkas iplar paxta iplarga qaraganda kamroq kirishadi, zarbiy tasirlarga 2-3 marta chidamliroq bo'ladi.

So'nggi yillarda yangi to'qimachilik texnologiyasi – noto'qima materiallar ishlab chiqarish keng rivojlanmoqda. Noto'qima materiallar deganda to'qimachilik tolalari, iplar sistemalarini yoki siyrak gazlamalarni mexanik yoki fizik-ximiyaviy usullarda biriktirib ishlab chiqariladigan materiallar tushuniladi. Noto'qima materiallar olishning yelmlab yopishtirish (quruq va ho'l) hamda mexanik (to'qima-tikma, igna sanchish va bosish) usullari keng qo'llaniladi.

Gazlamalar o'rniga noto'qima materiallar ishlatish katta iqtisodiy samara beradi, chunki bunda arzon va noyobmas xom ashyodan foydalaniladi, texnologik jarayon ancha qisqaradi va foydalaniladigan jihozlarning ish unumi yuqori bo'ladi. Yopishtirish usulida miyona materiallarini bir aggregatda ishlab chiqarish mumkin.

To'qima-tikma usulda noto'qima materiallar ishlab chiqarishda ish unumi to'quvchilik usulidagidan 13-15 marta, yopishtirish usulida 60-70 marta oshadi. To'qima-tikma usulda olingan noto'qima materialarning tannarxi gazlama va trikotaj tannarxidan 1,25-1,38 marta, yopishtirilgan bortovkanikidan 4-5 marta arzon bo'ladi.

Ko'pgina noto'qima materiallar tolali xolstdan tayyorlanadi. Xolstdagi tolalar tartibli yoki tartibsiz ravishda joylashgan bo'lishi mumkin. Tolalari tartibli joylashgan xolst hosil qilish uchun tarash mashinalarida olingan xolstlar bir-biriga qo'shib chiqiladi.

Kalta tolalari tartibsiz joylashgan xolstlar aerodinamik yoki elektr usulida olinadi.

Uzun elementar tolali tartibsiz joylashadigan xolstlar filer usulida tayyorlanadi, bu usulda filerdan chiqayotgan tolalar darhol xolst qilib taxlanadi.

Tikuvchilik yopishtirma va to'qima – tikma usullarida olinadigan materiallar keng qo'llaniladi.

Yopishtirma usulda tolali xolst yoki iplar qatlami har xil bog'lovchimoddalar bilan yopishtiriladi. Yopishtirishning quruq va ho'l usullari mavjud.

Termoplast (quruq) yopishtirish usulida bog'lovchi moddalar sifatida termoplastik, ya'ni oson suyuqlanadigan tolalar, plyonkalar, to'rlar, iplar, kukunlar ishlatiladi.

To'qima va tikma usul zichlashtirilgan xolst tolalari, tarang tortilgan iplar yoki siyrak gazlamani to'qima tipdan zanjirli qaviq bilan tikishga asoslanadi. Bu usulning to'qima-tikma usul deb atalishiga sabab shuki, bunda to'qish va tikish elementlari bo'ladi. Tikish elementi – tolali

xolst yoki tarang tortilgan iplar qatlamini tikish; to'qish elementi – trikotaj ignalaridan foydalanish va trikotaj o'riliishi hosil qilish.

To'qima-tikma materiallar xolst tikib, ya'ni iplarni tikib olingen materiallarga va gazlama tikib olingen xillarga bo'linadi. To'qima-tikma materiallarni tayyorlash uchun tarash-to'qish agregatlari (AChB-1, AChB-V, AChB-250-111) dan foydalanadi. Tarsh-to'qish agregati tolali xom ashyo bunker, tarash mashinasi, tarandi hosil qilgich, to'qish-tikish mashinasi va agregat boshqarish pultidan iborat.

Tolali xom ashyo oldin titiladi, savalanadi, iflosliklardan tozalanadi va aralashtiriladi. Bunkerdan tolalar agregatning tarash mashinasiga boradi. Tolalari uzunasiga joylashib qolgan taralgan yupqa xolst qatlami tarandi hosil qilgich orqali o'tib, harakat yo'nalishini o'zgartiradi va bir necha qatlam bo'lib taxlanadi, natijada tolalari ko'ndalang joylashgan xolst hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan xolst zichlanadi va tikish aggregatiga tushadi. Bu aggregatda tilchaali trikotaj ignalari sistemasi bo'lib, ular bitta taroq tarzida birlashtirilgan. Har qaysi ignaga bobinadan paxta yoki kapron ip kelib turadi. Bu iplar xolstni tikadi. Aggregatga o'rnatilgan fotoelement aggregatdagi tarash-tikish mashinalarini rostlab turadi. Tikish aggregati oldida titilayotgan xolst kompensatsiya halqasini hosil qiladi. Agar halqaning kattaligi normadan oshsa, fotoelement tarash mashinasini to'xtatadi va tikish mashinasini ulaydi. Xolst tikila borgan sari halqa kichrayadi, tarash mashinasini yana ulanadi va ish shu tarzda davom etadi.

Bosish usuli tolalarning bosiluvchanlik xossalariiga asoslanadi. Masalan, jun tolalar issiq va nam sharoitda mexanik kuchlar ta'sirida, paxta tolalari turli ximiyaviy elementlar ta'sirida bosilish xossasiga ega. Bosish usulida noto'qima

materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi tolalarning bosilish jarayonida o'zaro birikib ketishiga asoslanadi. Bu usul movut va drap tipidagi jun materiallar olishga imkon beradi. Bunday materiallar tayyorlash uchun, odatda, mayin jun tolalariga poliamid tolalar qo'shiladi. Materiallarni pishiqligini oshirish uchun bosish jarayoniga qadar taralgan ikki tolalar qatlami orasiga ko'ndalang yo'nalishda maxsus mashina yordamida iplar qo'yib ketilishi mumkin. Bosish usulida qimmatbaho xom ashyo talab etilishi tufayli bu usul kam qo'llaniladi.

Igna sanchish usulida tishli ignalar ta'sirida xolstdagi tolalarning bir qismi tolalar qatlami orqali o'tadi va tolalar massasini biriktiradi. Ignalarning o'lchamlari va shakli tolali xom ashyoning xiliga, xolstning qalinligi va nimaga ishlatilishiga bog'liq bo'ladi. Ignalar maxsus plitkalarga bikr qilib mahkamlanadi. Bu plitka tolalar massasiga minutiga 900 marta sanchiladi. Igna sanchiladigan materiallarning eni 7-8m gacha bo'ladi. Tolalar xolstda yaxshi birikishi uchun massaga yopishtiruvchi moddalar qo'shiladi yoki aralashma tarkibiga sintetik tolalar aralashtiriladi. Issiqlik ishlovi berganda bu tolalar kirishadi va xolstni biriktiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan usullarning ikki yoki bir nechtasini o'z ichiga olgan usullar aralash usullar deyiladi. Masalan, igna sanchish+ho'l yopishtirish usuli, igna sanchish termoplastik usul.

Noto'qima materiallar turli alomatlari bo'yicha: tolalar tarkibi bo'yicha (yarim jun, ip tolali va shtapel materiallar), yopishtirish metodi, vazifasi bo'yicha gruppalanishi mumkin.

### **Noto'qima materiallar sorti.**



Noto'qima materiallarni ishlab chiqarish va pardozlash jarayonida har xil nuqsonlar kelib chiqishi mumkin. Bunday nuqsonlar xom ashyoning sifati pastligi, texnologik jarayonning buzilishi, jihozlarning yaxshi sozlanmasligi sabab bo'ladi.

To'qima-tikma materiallarning asosiy nuqsonları: qalinligi hamma joyda birdek emasligi, eni har xilligi, moy tekkan va kirlangan yo'llar borligi, halqadorligi, uzunligi birdek emasligi, halqachalarning cho'zilganligi, naqshi chiqmaganligi, to'qilmay qolgan tuklarning borligi va hokazo.


Noto'qima polotnolar sifatiga qarab 1 va 2 sortlarga ajratiladi.

Sortini aniqlash metodikasi xuddi zig'ir tolali gazlamalarnikiga o'xshaydi. 1 sort polotnolarda fizik-mexanik ko'rsatkichlardan chetga chiqishlar va tarqoq nuqsonlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

To'qima-tikma uskunasi  
Igna sanchish uskunasi



## Нотүқима материалларнинг вазифасига кўра классификацияси



### 3-мавзу: Табиий ва сунъий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши.

Маъруза машғулотининг таълим технологиясининг модели.

<b>3- машғулот</b>	Табиий вакуний толаларнинг олиниши ва ишлатилиши .
<b>Ўқув соати:</b> 2 соат	<b>Талабалар сони:</b>
<b>Ўқув машғулотнинг шакли</b>	<i>Ахборотли маъруза</i>
<b>Машғулотнинг режаси:</b>	1. Толаларнинг синфланиши 2. Табиий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши 3. Сунъий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши
<b>Ўқув машғулотининг мақсади:</b>	Тикувчилик материалшунослиги тўғрисида умумий маълумотлар тўғрисида назарий кўникма хосил қилиш.
<b>Педагогик вазифалари:</b> 1. Толаларнинг синфланиши тўғрисида тушунча беради. 2. Табиий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши тўғрисида маълумот беради. 3. Сунъий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши тўғрисида маълумот беради.	<b>Ўқув фаолиятининг натижалари:</b> 2) Толаларнинг синфланиши тўғрисида тушунчага эга бўладилар.  2) Табиий толалар олиниши ва ишлатилиши тўғрисида маълумотга эга бўладилар.  3) Сунъий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши тўғрисида маълумотга эга бўладилар.
<b>Таълим усллари</b>	Маъруза, тезкор сўров, намойиш этиш, сухбат.
<b>Таълим воситалари</b>	Ўқув кўлланма, слайдлар,
<b>Ўқитиши шакллари</b>	жамоавий, гуруҳларда ишлаш.
<b>Ўқитиши шарт-шароити</b>	Техник воситалар ва гуруҳларда ишлашга мўлжалланган аудитория

### Ўқув машғулотининг технологик харитаси


<b>Ишининг босқичлари ва вақти</b>	<b>Фаолият мазмуни</b>	
	<b>Ўқитувчининг</b>	<b>Талабаларнинг</b>
<b>1. Кириш қисми.</b> (15дақика)	1.1 Мақсад ва режалаштирилган ўқув натижалари билан танишиши	Дикқат қиласи ва ёзиб оладилар.
	1.2 Маъруза режаси билан таниширади.	Тинглаб ёзиб оладилар.
<b>2. Асосий қисм</b> (55 дақика)	1.3 Талабаларга ўтилган мавзу юзасидан тезкор саволлар бериб билимларини текшириш Жавобларни биргаликда умумлаштиради ва асосий маъруза мавзусига ўтилади.	Тинглаб саволларга жавоб берадилар.
	2. Толаларнинг синфланиши	Тинглаб, ёзиб оладилар ва унга Кластер тузадилар.
	2.2 Табиий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши	Тинглаб, ёзиб оладилар ва ундан Кластерни чизиб, тўлдириб борадилар
	2.3 Сунъий толаларнинг олиниши ва ишлатилиши	Талаба ўқитувчини тинглаб ёзиб оладилар


<b>3. Яқунловчи қисм.</b> (10 дақықа)	3.1 Мавзу бўйича якуний хулоса ясади, муҳим жиҳатларга иштирокчилар дикқатини жалб қиласди, мавзу юзасидан саволларга жавоб беради.	Тинглайдилар
	3.2 Гурӯҳ фаолларини, алоҳида иштирокчиларни баҳолайди, ўзаро баҳолаш натижалари бўйича хулоса қиласди.	Тинглаб, ёзиб оладилар.
	3.3 Ўқув машғулотининг мақсадига эришиш даражасини таҳлил қиласди ва баҳолайди.	Тинглайдилар
	3.4 Уй вазифа беради: Мавзу бўйича «Блитс саволлар» тушиб келиш.	Тинглаб, ёзиб оладилар.

**Дарс режаси:**

1. Толаларнинг синфланиши.
2. Табиий толаларнинг олинниши ва ишлатилиши
3. Сунъий толаларнинг олинниши ва ишлатилиши

**Таянч тушунчалар:** табиий тола ,сунъий тола,ипак,жун,пахта,зигир,тош пахта,синтетик,саноат толалари ,полимер,капрон,нейлон. **To'qimaghilik tolalari**





Uzunligi ko'ndalang o'lchamlardan ancha katta bo'lgan, egiluvchan ingichka va pishiq jismlar tolalar deb ataladi.

Kalava ip, ip gazlama, noto'qima materiallar va hokazolar tayyorlash uchun ishlataladigan tolalar to'qimachilik tolalar deyiladi. Uzunasiga tolalar ajralmaydigan yakka tolalar (pahta, jun tolalari) elementar tolalar deb ataladi. Uzunasiga o'zaro birikkan elementar tolalardan iborat tolalar (zig'ir, kanop, losi, jut va xokazo tolalar) tehnik deyiladi.

## TOLALAR KLASSIFIKASIYASI

Paydo bo'lishi, olinishi va himiyaviy tarkibiga qarab, tolalar xar hil gruppalarga bo'linadi, ya'ni klassifikasiyalanadi. Barcha tolalar ikki katta gruppaga: tabiiy (natural) va himiyaviy tolalar gruppasiga bo'linadi. Tabiatda mavjud bo'lgan tolalar tabiiy deb, zavod sharoitida olinadigan tolalar himiyaviy deb ataladi. Tabiiy tolalarga o'simliklardan olinadigan tolalar (cellyulozali tolalar - pahta, zijir, kanop, losi va xokazolar), hayvonot tolalari (oqsilli tolalar - jun, tabiiy ipak). Minerallardan olinadigan tolalar (asbest) kiradi.

Himiyyaviy tolalar sun'iy va sintetik hillarga bo'linadi. Sun'iy tolalar o'simliklardan, hayvonlar junidan va mineral jinslardan olingan hom ashyodan tayyorlanishi mumkin. Shuning

uchun ular tabiiy tolalarga o'lish, cellyulozali (viskoza, asetat, triasetat, mis, ammiak va hokazo) oqsilli (kazein), mineral (shisha va metal) tolalariga bo'linadi.

Nisbatan oddiy moddalarning molekulalarining biriktirilishi yo'li bilan olinadigan tolalar sintetik tolalar deyiladi. Kapron, lavsan, nitron, hlorin, vinol, polietilen, polipropilin va boshqalar sintetik tolalardir.

## TOLALARING HIMIYAVIY TARKIBI.

Mineral tolalardan tashqari barcha tolalar himiyaviy tarkib jihatidan organik moddalardir. Ular tabiiy yoki himiyaviy yo'l bilan olingan turli-tuman yuqori molekulyar moddalardir. Mineral tolalarning asosini organik moddalar tashkil qiladi.

Barcha o'simlik tolalarni asosini murakkab organik birikma sellyuloza, ya'ni uglerod, vodorod va kislordan iborat bo'lgan kletchatka tashkil qiladi.

Barcha hayvonot tolalari asosida yanada murakkabroq organik moddalar - oqsillar etadi. Ular aminokislardan tashkil topgan. Oqsil tarkibida albatta uglerod, kislordan, vodorod va azot kabi elementlar bo'ladi. Junni hosil qiladigan oqsil birikmasi - keratin tarkibida, bulardan tashqari, oltingugurt bo'ladi. Tabiiy ipak, ya'ni pilla tolasi tarkibida ikki oqsil - fibroin, sericin bo'ladi.

Sintetik tolalarning asosini murakkab organik birikmalar ancha molekulalarini sintez qilib olinadigan polimerlar tashkil qiladi.

Pahta bir yillik o'simlik bo'lib, g'o'za turiga kiradi. Vatani Hitoy, Iindiston, Misr. G'o'zaning 50 dan ortiq turi bor. Asosiyları 4 ta:

1. **Gossipium xirsutum**
2. **Gossipium barbadense**
3. **Gossipium arboeum**
4. **Gossipium xerbareum.**

Eng ko'p tarqalgan **Gossipium xirsutum** turi bu 108-F, 137-F, T-2, T-3 va boshqalar.

Pahta tolasining % hisobida quyidagi moddalar kiradi:

Cellyuloza - 97,0 - 98,5


Pektin modda - 0,8 - 1,0

YOG' - 0,2 - 0,3

va boshcalar 0,1 - 0,2

Pahta g'o'za deb ataladigan o'simlik urug'ini (chigitni) qoplab turadigan juda ingichka toladir. Pahta to'qimachilik sanoatining muhim hom ashyosi hisoblanadi.


Pahtaning chigitdan ajratilmagan tolalari chigitli pahta deb ataladi. Chigitli pahtaning 1/3 qismini tola, 2/3 qismini chigit tashkil etadi. Pahta 3-5 chanoqli bo'ladi. Tolalarning tuzilishi ularning pishganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mikroskop ostiga qo'yib qarasak, pishmagan (o'lik) pahta tolalari yassi, lentasimon yupqa, devorli ekanligini va o'rtasida keng kanal borligini ko'ramiz. Tolalar pishgan sari devorlariga cellyuloza yig'iladi va devorlari qalinlashadi, kanali torayadi, tolalar buramdar bo'lib qoladi.




z=0    z=2    z=2,5    z=5

**Paxta tolasini tuzilishi**

**Paxta tolasining ko'ndalang kesimi**



a) pishmagan b) yaxshi pishgan v) juda yapishgan



### Paxta tolasining pishiqlik ko'effisienti

Ximiyaviy tarkibi jihatidan pahta deyarli sof cellyulozadan iborat. Pishgan pahta tolsi 95-96% cellyuloza va 4-5% turli aralashmalar: moy, mum, buyoq va mineral moddalardan iborat. Tolaning sirtqi cellyuloza - moy qatlami kutikula deb ataladi. Tolalarni rangida farqi bo'lishi mumkin. Masalan, qora rang, - 40 hildan ko'p bo'ladi. Tolalar har hil tovlanadi. Tolalarning uzunligi bilan yo'g'onligi bir-biriga bog'lab, ular pahta naviga qarab har hil bo'ladi. Tolalar ko'ndalang kesimining o'rtacha o'chhami 15-25 mkm. Kalta tolali pahtani qayta ishlab yo'g'on va tukdor kalava ip olinadi; undan bayka flonel bumaze va boshqa gazlamalar tayyorlanadi. O'rtacha tolali pahtadan o'rtacha nomerli ip yigiriladi, undan chit, satin va boshqa gazlamalar to'qiladi. Uzun tolali pahtadan eng ingichka va silliq ip yigiriladi; undan sifatli ip-gazlamalar - vatist, markizet, mayin satin va boshqa gazlamalar tayyorlanadi. Bu tola yuqori sifatli hisoblanadi.

Pahta	Yo'g'onligi (ingichkaligi)		Uzunligi (mm)
	Teks	Nº	
Uzun tolali	0,166-0,125	6000-8000	35 va undan uzun

O'rtacha tolali 0,2-0,166	5000-6000	28-34
Kalta tolali	0,25-0,2	4000-4800

Tolalarining pishiqligi ularning pishganlik darajasiga bog'liq. Pishiqlik kN bilan o'lchanadi. Normal pishgan tola uchun o'rtacha uzish kuchi 5 kN, nisbiy uzish kuchi 27-36 kN./teks, tolalarining uzilishidagi to'liq uzayishi 7-8%.

Tolalarining rangi oq, biroz sariq. Ba'zi g'o'za navlaridan tuk sariq, sarg'ish va boshqa tabiiy rangdagi tolalar olinadi. Bunday tolalarining kutikulasi tarkibida bo'yovchi pingment bo'ladi.

Pahtaga kislota va ishqorlar ta'sir etadi. Pahta kislotaga chidamsiz, u hatto suyultirilgan kislotalar ta'sirida ham emiriladi. Kislotalar uzoq ta'sir qilib turgan ip gazlama qurigandan keyin pishiqligi shunchalik pasayib ketadiki, hatto papiroq qog'ozdek yirtilib ketaveradi. Konsentrasiyalangan kislota tolani ko'mirga aylantiradi.

Himiyyaviy tozalashda qo'llaniladigan organik erituvchilar pahtaga ta'sir o'ilmaydi. Barcha organik tolalar kabi pahta ham yorug'lik ta'sirida pishiqligini asta - sekin yo'qotadi. quyosh nuri 940 soat ta'sir qilib turganda tolalarining pishiq'ligi 50% pasayadi.

150<sup>0</sup>S temperaturada quruq pahta tolalarining hossalari o'zgarmaydi. Temperatura bundan oshganda biroz sarg'ayadi, so'ngra qo''ng'ir tusga kiradi va 250 <sup>0</sup>C da ko'mirga aylanadi.

Pahta tolalari sarg'ish alanga berib yonadi va to'liq yonib kulrang kul xosil qiladi. Tolalar kuydirilganda ulardan kuygan qog'oz xidi keladi. Pahta tolasining chanoc'ida 18-45 chigit bor. Har bir chigitning ustida 7000-1500 tola, 1 chigitning og'irligi 3-7,5 gramm tashkil qiladi.

Pahta tolasi uzunasiga o'sadi. 30-40 kun qalinligini o'zgartirmasdan, keyin sellyuloza miqdori to'la boshlaydi va 50-70 kun ichida tola pishadi. Pishgan pishmaganligiga qarab tolalar koeffisientlarga bo'linadi 0,0; 0,5; 1,5; 2,0; 2,5; 3,0; 3,5; 4,0; 4,5; 5,0. Pahta qo'lida va mashinalarda (shpindel) yig'ishtiriladi. Pahtaning ishlab chiqarish jarayoni quyidagilardan iborat:

1. Dastlabki tozalash - pahta toylardan, bojlardan, changdan tozalanadi.
2. Tolani chigitdan ajratish - voloknootdelitel.
3. Tolani tozalash - qolgan nuqsonlardan tozalash. Tozalangan pahta tolasi sifati ko'rsatkichlariga qarab presslanadi.
4. Presslash - gidravlik press bilan pahta kipalarga presslanadi 150- 200 kg va ustidan bekiladi, iflos bo'lmasligi uchun sim bilan bog'lanadi.
5. Chigit bilan qolgan tolalar tozalanadi, yog', moy zavodlariga jo'natiladi.
6. Pahtaning ishlatilishi.

Pahta tolasidan asosan kalava ip tayyorlanadi. Iplar - gazlamalar, trikotaj, noto'qima mahsulotlari uchun ishlatiladi. Undan tashqari g'altak iplari, kanop, galanteriya mahsulotlari uchun ishlatiladi. Pahtadan 200 dan ko'proq assortiment ishlab chiqariladi..

Zig'ir - zig'ir poyaning lub qismidan olinadigan tola. O'simliklarning poyalari va barglaridan olinadigan tolalar ***lub tolalari*** deb ataladi. Zig'ir tolasi ***elementar*** va ***tehnik*** tolalarga bo'linadi. Elementar zig'ir tolasi bir o'simlik hujayrasidan iborat. Tehnik tolalar pektin moddalar (tabiiy elim moddalar) vositasida o'zaro birikkan elementar tolalar dastasidan tashkil topadi.


Elementar zig'ir tolasini mikroskop ostiga qo'yib qarasak, o'rtasida tor kanali va yg'o'onlashgan tirsaksimon joylari bo'lgan o'simlik hujayrasini ko'ramiz. Tolalarining uchi o'tkir, ikki tomondan berk. Zig'ir tolasining ko'ndalang kesimi o'rtasida kanali bor 5-6 yoo'li ko'pburchakdan iborat.

Zig'ir tarkibida 80% cellyuloza va 20% boshqa aralashmalar bor. Bu aralashmalar moy, mum, mineral moddalar va lignin (hujayraning yog'ochlashish mahsuloti) dan iborat. Lignin tolalarni qattiqlashtiradi. Zig'ir tolasida tahminan 50% lignin bor, shuning uchun u pahtaga o'araganda ancha o'attio' bo'ladi. Elementar zig'ir tolalarining yo'g'onligi pahtanikidek, uzunligi 15-26 mm.


Tehnik zig'ir tolalarining yo'g'onligi elementar tolalarining yo'g'onligi va dastadagi soni bilan belgilanadi. Aynan zig'irdan olish mumkin bo'lgan kala ipning yo'g'onligi zig'ir tolalari dastasining ingichka tehnika tolalariga ajralish hususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Tehnik tolalarning uzunligi o'simlik tolasining uzunligi va ishvlov jarayonida tolalarning ingichka tolalarga ajralish darajasiga bog'liq bo'ladi. Yigirish uchun qo'llaniladigan tehnik tolalarning uzunligi o'rtacha 35-90 sm, yo'o'onligi 10-3,33 teks.

Zig'ir tolasi



a) kompleks tola  
b) yakka tola



Lub tolalari


Elementar tolalarning pishiqligi 0,98 - 24,52 kN ga teng uzish nagruzkasi bilan ifodalanadi, ya'ni zig'ir tolalari pahtadan 3-5 marta pishio'rrok. Tehnik tolaning uzilishi, mustahkamlik 200-400 kN. Elementar tolaning nisbiy uzilishi, mustahkamlik 54-72 kN/teks, uzilishdagi uzayishi esa, 1,5-2,5% ya'ni pahtanikidan 3-5 marta kichik. Shuning uchun zig'irdan o'ilingan kotirmalik gazlamalar ip gazlamaga o'raganda buyumning shaklini yahshiroo' sao'laydi. Nisbatan kichik (uzuvchi kuchning 35% chamasi) kuch ta'sir o'ilganda ham, o'oldio' deformaciya uzilishi 60-70% ga to'o'ri keladi. Shuning uchun zig'ir tolalaridan tikilgan gazlama va buyumlar ancha o'ijimlanuvchan bo'ladi.

Zig'ir tolalarining rangi - och kulrangdan to'q kulranggacha. Zig'ir o'ziga hos tovlanib turadi, chunki tolalarning sirti silliq bo'ladi. Zig'irning fizik-himiyaviy hossalari pahtaning hossalariiga yao'in. Normal sharoitda gigroskopligi 12%. Zig'ir namlikni tez shimadi va tez ketkazadi. Suv ta'sirida elementar tolalarning pishio'ligi oshadi, tehnik tolalarniki esa pasayadi, chunki pektin moddalar yumshoo', ayrim tolalar dastasi orasidagi bog'lanish bo'shashadi. Zig'irning o'ziga hos hususiyatlaridan biri. Issio'ni yahshi o'tkazuvchanligidir. Shuning uchun zig'ir tolalari paypaslab ko'rulganda barmoo'lariga sovuo' unnaydi.

Zig'irga kislota va ishqorlarning ta'siri huddi pahta ta'siriga o'hshaydi. o'izigan metall sirt (dazmol) ta'siriga zig'ir yahshi chidaydi, chunki gigroskopligi pahtanikiga qaraganda ancha yuoqori. quyosh nurlari 990 soat mobaynida to'g'ri tushib turganda, zig'irning pishiqligi 50% pasayadi. Ya'ni uning yoruq'likka chidamliligi pahtaga nisbatan bir oz yuoqoriroq. Zig'ir huddi pahtaga o'hshab yonadi.


Jun - junli hayvonlarning teri qqtlamidagi shohsimon o'simtalar. To'qimachilik sanoatida qo'y, tuya, echki, qoramol va quyon juni ishlataladi. Jun tolalari ildiz va tana o'ismlardan iborat. Ildiz - junning teri qatlami ostidagi qsmi, tana - teridan chio'ib turgan va oqsil - ketarindan iborat bo'lgan qismi. Jun tolasining tanasi tangachali, qobiq va o'zak qatlamlardan iborat.

Tangachali qatlam tola tanasini tashqaridanqoplab turgan shohsimon tangachalardan iborat. Tolaning tipiga qarab tangachalar halqasimon, yarimhalo'asimon yoki plastinkasimon bo'lishi mumkin. Tangachali tola tanasining emirilishidan sao'laydi, tolani tovlantirib turadi va



tolalarning hossasini yahshilaydi.

### **Jun tolalarining ko'ndalang kesimi**



Qobiq qatlam - jun tanasini hosil qiladigan urchuqsimon hujayralardan iborat bo'lib, uning pishiqligi, elastikligi va boshqa sifatlarni belgilaydigan asosiy qatlam hisoblanadi.

O'zak qatlam - tola o'rtasida yotadi, u havo bilan to'plangan hujayralardan iborat. Yo'g'onligi va tuzilishiga qarab, jun tolalari o'uyidagi tiplarga bo'linadi: momio', dao'al tuk, oraliq va o'lik tolalar.

Jun tolalarining uzunligi 20-450 mm gacha. Uzunligi jihatidan bir jinsli jun Koska tolali (55 mm gacha) va uzun tolali (55 mm dan uzun) hollarga bo'linadi.

Junning yo'g'onligi (ingichkaligi) tolaning tipiga bog'liq bo'ladi hamda kalava ip gazlamalarning hossalariga katta ta'sir qiladi. Momiqning ingichkaligi 30 mkm gacha, dag'al tolaning 50-90 mkm, o'lik tolaniki 50-100 mkm va bundan ingichka bo'ladi.

Quruq tolalar uzilish paytida 40% uzayadi. To'liq uzayishning ancha (7% gacha) ulushini qayishqoq va yuoqori elastik deformaciylar tashkil qiladi, shuning uchun jun buyumlar uncha g'ijimlanmaydi va ko'rinishi yahshi saq'lanadi. Mayin junli qo'y juni oq, bir oz sarg'ish, dag'al va yarim dao'al jun kulrang, malla, qora rangda bo'lishi mumkin.

Normal sharoitda mayin junning namligi 18%, dag'al junniki 15%. Boshqa tolalarga nisbatan junning gigroskopligi yuoqori. U namlikni sekin ketkazadi. Issiqlik va namlik ta'sirida tola 60% gacha va undan ham ko'p uzayadigan bo'lib qoladi. qo'llab dazmollaganda cho'ziluvchanligini o'zgartirish va kirishish hususiyatiga ega bo'lgani uchun junni dazmollab qisqartirish, kirishish, cho'zish, dekatirovka qilish mumkin. Junni amfoter hossalariga ega, ya'ni kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham ta'sirlanishi mumkin.


### **TIKLANGAN JUN**

To'qimachilik sanoatida, hayvonlardan qirqib olinadigan jundan tashqari, arzon movut gazlamalar tayyorlash uchun aralashma tarkibiga zavodda tayyorlangan va tiklangan jun qo'shish mumkin. Zavodda tayyorlangan jun - qoramol terisidan qirqib olingan jun. Tiklangan jun - jun lahtaklar va eski jun buyumlarni titib, ya'ni savab olingan jun.

Tabiiy ipak - ipak qurti o'raydigan juda ingichka ip. Pillakashlik fabrikalarida ipak qurti pillalari ipak tortish avtomatlarida tortiladi. Tortish paytida bir necha ipakning uchi birlashtiriladi.

Natijada hom ipak hosil bo'ladi. Hom ipak iplari yumshatilgan oksid - sericin bilan bir-biriga birikkan bir necha pilla ipdan iborat. Pilla ipining yo'o'onligi butun uzunligi bo'yicha bir hil bo'lmaydi va 0,5dan 0,18 teksgacha (№ 2000-5600) o'zgarib turadigan chizio'li zichligi bilan ifodalanadi. Bitta tolanning ko'ndalang o'lchami o'rtacha 16 mkm, pilla ipiniki esa 32 mm. Hom ipak ko'pincha 1,556 va 2,33 teks yo'g'onlikda ishlab chio'ariladi. Pilla ipning uzunligi 1500-2000 metrga etadi. Pilla ipning uzelishi 10 kN., nisbiy uzelishi nagrkuzasasi 27-31,5 kN/teks. Ipakning uzelishidagi uzayishi 22% etadi.

Normal sharoitda tolalarning gigroskopligi 11%. qaynatilgan pilla iplari oq, biroz sarg'ishroq rangda bo'ladi. Himiyyaviy turg'unligi jihatidan tabiiy ipak jundan afzal turadi. Tabiiy ipak faqat koncentraciyalangan ishqorlarda qaynatilganda eriydi. Bo'yalgan tabiiy ipak tolalariga suv uzoq ta'sir etib turganda ularda oqish dog paydo bo'lib, buyumlarning ko'rkligini buzadi. Ho'l holatida tabiiy ipakning pishiqligi 5-15% pasayadi.



**Ипак куртининг ривожланиш даврлари**



**Pilla ipakning mikroskopda ko'rinishi:**  
1 - fibrion. 2 - sericin.

Zig'ir tolasi - asosan gazlamalar uchun ishlataladi. Ko'yakli gazlamalar, bortovkalar, dasturhonlar, qoplar. Chiqindilardan - kanop, arqon, ishlab chiqariladi, qurilishda, kemasozlikda va boshqa sohalarda.

Jun tolasidan - asosan kalava iplar tayyorlanadi. Ular kostyumlik, ko'yaklik, trikotaj, tehnik matolarga ishlataladi. Jun tolasi gilam va gilam mahsulotlari uchun noto'qima mahsulotlar ishlataladi. Undan tashqari shlyapalar, pima va boshqa mahsulotlar.

Tabiiy ipakdan asosan gazlamalar tayyorlanadi. Krepdishin, krepjorjet, parashyutli gazlama, galstuk, tukli gazlamalar, tikuv iplari, g'altak iplari va boshqalar.

Himiyaviy tolalar sun'iy va sintetik turlarga bo'linadi. Sun'iy tolalar ishlab chiqarishda hom ashya sifatida yog'och cellyulozasi, pahta chiqindilari va boshqalar, sintetik tolalar ishlab chiqarishda esa gazlar hamda toshko'mir va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlataladi.

Sun'iy tolalarning himiyaviy tarkibi ular olinadigan dastlabki tabiiy hom ashyoning himiyaviy tarkibidan farq qilmaydi. Sintetik tolalar himiyaviy sintez reakciyalari natijasida, ya'ni past molekulyar birikmalarga aylantirish natijasida olinadi. Bunday tolalar tabiatda tayyor holatida uchramaydi.

Ximiyaviy tolalar olish jarayoni uch bosqichdan iborat: yigiruv eritmasini hosil qilish, tolani shakkantirish va padozlash. Mineral tolalardan boshqa barcha tolalar yigiruv eritmalari deb ataladigan eritma yoki suyuqlanmalardan olinadigan. Tolalar ip shaklini berishda yigiruv eritmasi filter deb ataladigan mahsus qalpoqchalarning mayda teshiklaridan kuch bilan o'tkaziladi. Fil'erlar yigiruvchi mashinalarda himiyaviy tolalarga shakl beradigan ish organlari hisoblanadi. Filerlar qimmatbaho metallardan tayyorlanadi.

Filerlardan chiqayotgan yigiruv eritmasi oqimlari qotib ipga aylanadi. Eritmalaridan ip olishda ular cho'ktirish vannasida ho'l muhitda qotish mumkin, bunday usul ho'l usul deb ataladi. Eritma oqimlarini quruq muhitda qaynoq havo bilan qotish usuli ham bor, bu usul quruqusul deyiladi.


## SUN'İY TOLALAR.

**Viskoza tolalar.** Viskoza tolalar ho'l usulda olinadi. Bunda hom ashya sifatida barcha archa, qarag'ay, oq qarag'ay, qora qayin yog'ochdan olinadigan yog'och cellyulozasi ishlataladi.

**Tsellyuloza** – qog'oz kombinatlarida yog'och 7mm gacha kattalikdagi payrahalarga maydalanimi va ishqor eritmasida qaynatiladi. Natijada kulrang cellyuloza massasi hosil bo'ladi. Bu massa oqartiriladi va karton listlari tarzida presslanadi.

Cellyuloza ksatogenati 4-5% li qyuvchi natriy eritmasidan eritilgandan qovushqoq yigiruv eritmasi - viskoza hosil bo'ladi.

Yigiruv eritmasi 25-30 soat mobaynida 160 °S temperaturada etiltiriladi, bunda u aralashtirilib turiladi, filtrlanadi va havo pufakchalaridan tozalanadi. Etilish jarayonida yigiruv eritmasi buralish va ip shaklini olish hususiyatiga erishadi. Viskoza nasoslar yordamida trubalar orqali yigiruv mashinalariga yuboriladi, u erda shisha naychalari orqali o'tadi va filtrlardan kuch bilan chiqib, sul'fat kislota va uning tuzlari solingen cho'ktirish vannasiga tushadi. Cho'ktirish vannasida viskoza ishqori neytrallanadi, ksatogenat elementlariga ajraladi va cellyuloza ingichka viskoza ipak tolalari tarzida tushadi. Profillangan tolalar gazlama asosli sun'iy mo'yna olish uchun ishlataladi. Profillangan kesimli to'qimachilik viskoza ipidan olingan sun'iy mo'yna tabiiy mo'ynaga o'hshash ko'rinish beradigan optik effektga ega bo'ladi.



**Mtilon** - modifikasiyalanadigan junga o'hshash viskoza tola bo'ib, gilamlarni tukli qilish uchun ishlataladi.

Viskoza tolalarini uzunasiga mikroskop ostiga qo'yib qarasak, buylama chiziqlari bo'lган cilindr shaklida ko'rindi. Bo'ylama chiziqlar yigiruv eritmasi notejis qotganda paydo bo'ladi. Sutrang tolalarda qora nuqtalar bo'ladi, bu nuqtalar titan (ИВ) - oksid qo'shilgan natijasidir. Tolalarning ko'ndalang kesimi tilingan ko'rinishda.

Tolalarning uzunligi har hil bo'lishi mumkin. Elementar tolalarning chiziqli zichligi 0,27 - 0,66 teks, ko'ndalang kesimi 25 - 60 mkm. Viskoza iplarning yo'g'onligi ularni hosil qiladigan elementar tolalarning yo'g'onligi va soniga bog'liq bo'ladi. Tolalarning pishiqligi cellyuloza molekulalarining joylashuviga bog'liq bo'ladi. Normal viskoza tolalarning pishiqligi tabiiy ipaknikidan past, juda pishiq viskoza tolalaridan esa ancha yuqori. Oddiy tolalarning nisbiy uzilish nagruzgasi 9,8 kN/teks; juda pishiq tolalarniki 45 kN/teksgacha, ho'l holatda pishiqligi 50-60% gacha pasayadi. Normal tolalarning uzilishdagi uzayishi 22% ga, juda pishiq tolalarniki 6 - 10% ga etadi. To'liq uzayishning anchagina qoldiq deformaciya tashkil etadi. Shuning uchun viskoza tolalardan tayyorlangan buyumlar ancha g'ijimlanuvchi bo'ladi.

**Polinoz tola.** Polinoz tola viskoza shtapel tolaning bir hili bolib, hossalari jihatidan uzun tolali pahta tolalarining hossalariiga yaqin turadi. Polinoz tolalar ishlab chiqarish jarayoni oddiy viskoza tolalar olish jarayoniga o'hshaydi. Polinoz tolalarning asosiy ko'rsatkichlari: chiziqli zichligi 0,166 - 0,126 teks, uzilishdagi uzayishi 12 - 14%, ho'l holatda pishiqligini yqotish 20 - 25%.

Polinoz tolalar qimmatli hossalari ularni uzun tolali, a'lo navli pahta o'rniga ishlatischga va viskoza tolalardan tayyorlanadigan buyumlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Ko'ylik va plashlik gazlamalar, mayin trikotaj polotnolar, g'altak iplar ishlab chiqarishda polinoz tolalardan sof holda ham, pahta bilan aralashtirib ham foydalanish mumkin.

**MIS - AMMIAK TOLA.** Bunday tola pahta cellyulozasidan tayyorlanadi. Pahta momiqini mis-ammiak reaktivida eritish yo'li bilan yigiruv eritmasi olinadi. Bunday tola ho'l usulda olinadi; cho'ktirish vannasiga suv yoki kuchsiz ishqor olinadi.

Mis - ammiak tolaning ko'ndalang kesimi deyarli dumaloq, bo'ylama ko'rinishi cilindr shaklida.

**ACETAT TOLA.** Acetat tola olishda hom ashyo sifatida pahta chiqindilari ishlataladi. Pahta chiqindilari muzlatilgan sirka kislota muhitida acetat angidrid bilan ishlanadi. Acetat tolaning tuzilishi viskoza tuzilishiga o'hshaydi, lekin unda chuqurroq yo'llar bo'ladi. Acetat tolalarining himiyaviy tarkibi himiyaviy bog'langan cellyulozadan iborat, shuning ularning hossalari viskoza va mis-ammiak tolalarining hossalardan farq qiladi.

Normal asetat tolaning pishiqligi viskoza tolaning pishiqligidan bir oz pastroq. Uzilishdagi uzayishi 22-30% etadi. Tolalar sariq alanga chiqarib sekin yonadi.

**TRIASETAL TOLA.** Triasetal tola butunlay asetillangan cellyulozadan ishlab chiqarish bilan asetat toladan farq qiladi. Juda qayishqoqligi pishiqligi ( $\pi_x = 11-12 \text{ kN/teks}$ ), acetonga


chidamliligi bilan toladan ustun turadi. Triacetat va acetat tolalar gazlamalar va trikotajlar buyumlar tayyorlashda keng ishlatiladi.

**Shisha tola va metall iplar.** Shisha tolalar olish uchun cilikat shisha parchalari elektr pechlarda 1370 OS da suyuqlantiriladi. Tez aylanib turadigan baraban filerdan chiqayotgan suyuq shisha oqimlarini ilashtirib ketadi va 30 m/sek tezlikda cho'zadi. Shisha iplar pishiqliq, egiluvchan, yoruqliknini yahshi o'tkazadi, yorug'lik va olov ta'siriga yahshi chidaydi, elektr issiqlik tovushni izolyaciyalash hossalari yuqori. Bunday tolalar himiyaviy turg'un bo'lib, faqat ftorit kislotada eriydi. Tolalarning gigroskopligi past - 0,2%. Shisha tolalarni bo'yash uchun suyuq shisha massasiga hrom, kobalt, marganec, temir, oltin va boshqa birikmalar qo'shiladi. Shisha tolalar teknik maqsadlarda bezak gazlamalar olish uchun ishlatiladi.

Metall iplar misdan yoki mis qotishmalaridan qilingan simni asta-sekin cho'zish yoki yassi alyuminiy lenta (folga)ni qirqish yo'li bilan olinadi. Metall iplarning asosiy hillari: voloka - dumaloq metall; plyushchenko - pilta ko'rinishidagi yassi ip; kanitel - spiralsimon voloka yoki plyushchenka; mishura - voloka yoki plyushchenkadan burab tayyorlangan ip; pryadevo - plyushchenko qo'shib ishlatilgan pahta yoki ipak ip; alyuminiy (lyureks) - kumushrang yoki turli rangdagi elim qoplangan yassi alyuminiy ip. Metall iplar pogonlar, daraja nishonlari, zarhal buyumlar tayyorlash, yaltiroq gazlamalar - parcha to'qish, shuningdek gazlamalarni bezash uchun ishlatiladi.

Sintetik tolalar qanday polimerlardan tayyorlanishiga qarab gruppalarga bo'linadi.

**Poliamid tolalar** cilindr shaklida bo'lib, ularda mikroskop ostida ko'rindigan kovak va darzlar bor; ko'ndalang kesimi dumaloq yoki 3 yoqli (profillangan) bo'lishi mumkin. Poliamid tolalarga hos hossador engil, qayishqoq, uzilishga pishiqligi yuqori, ishqalanish va egilishga chidamli, himiyaviy turg'un, sovuqqa, mikroorganizmlar ta'siriga chidamli, mog'orlanmaydi. Uzilishga pishiqligi jihatidan kapron po'latdan 2,5 barobar ustun turadi. Kapron tolalar faqat koncetraciyalangan kislotalar va fenolda eriydi. Ular yashil alanga berib yonadi, shunda tolalarning uchi qo'ng'ir rangda dumaloqlanadi. Gigroskopligining pastligi va issiqliqa uncha chidamasligi kapron tolalarning kamchiligidir. Anid va enantning hossalari kapron hossalariiga o'hshaydi.



Iplarni formalash ususli

#### *Poliamid tolalarining asosiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.*

Tola	Nisbiy uzilish nagruzka kN/teks	Uzilishdagi uzayishi %	Gigroskopligi %	Yumshash tepreraturasi $^{\circ}$ S
Kapron	45-70	20-25	3,5ch-4	170
Anid	45-70	20-25	3,5-4	235
Enant	40-65	18-23	2,4	200

Kapron kompleks iplar, shtapel, tolalar, monotolalar (yakka tola) tarzida ishlab chiqariladi. U gazlamalar, paypoqlar, trikotajlar, g'altak iplar, uqalar, arkonlar, baliq ovlash turlari va hokazolar tayyorlashda keng ishlatiladi.

**Poliefir tolala.** lavsan neftni qayta ishlash mahsulotlaridan ishlab chiqariladi. Bunday tola AQShda dakron, GDR da lanon, Angliya va Kanadada terilen, Polshada elan deb ataladi.

Lavsan tuzilishi va fizik-mehanik hossalari jihatidan kapronga o'hshaydi: nisbiy uzilishi nagruzkasi 40-55 kN/teks, uzilish paytidagi cho'ziluvchanligi 20-25%. U ho'l holatda hossalarini o'zgartirmaydi, engil, qayishqoq, sovuqqa, kunga chidamli, chirimaydi.

Sof lavsan g'altak iplar, tur, tehnik gazlamalar, sun'iy mo'yna, gilam va shu kabilar tayyorlash uchun ishlatiladi.

**Poliakrilonitril tolalar.** Nitron toshko'mir, neft yoki gazni qayta ishlash mahsulotlaridan olinadi. Bunday tolalar kapron va lavsanga qaraganda mayinroq va tovlanuvchanroq. Nitronning yumshash temperaturasi  $200-250\ ^{\circ}$ S, nitron alangaga tutilganda suyuqlanadi va yorqin sarg'ish alanga berib chaqnab yonadi.

**Polivinilchlorid tolalar.** Hlorin, etilen yoki acetilenden ishlab chiqariladi. Uning uzilishdagi uzayishi 18-24%, gigroskopligi juda past - 0,1%. Hlorin yorug'lik ta'siriga uncha chidamaydi.

Xlorinning asosiy kamchiligi - issiqqa chidamsizligi. Xlorin 66 °S da butunlay kirishadi, 90 °S da esa emiriladi. Xlorin yonmaydi va alangani avj oldirmaydi. U alangaga tutilganda jizg' inak bo'lib kuyadi. Dustning hidi anqiydi.

**POLIVINILSPIRT TOLALAR.** Polivinilspirt tolalarga: vinol, vinilon, vinilan, vulan, mevlon kiradi.

Gigroskopligi (5-8%) jihatidan vinol pahtaga yaqin turadi. Nisbiy uzilish nagruzkasi 30-40 kN/teks, uzayishi 30-35%, ho'l holatda pishiqligini 15-25% yo'qotadi. Yumshash temperaturasi 220-230 °S; 200 °S da issiqdan kirisha boshlaydi.

**Poliolefin tolalar.** Poliolefin tolalarga polietilen va polipropilenden tayyorlangan tolalar kiradi. Poleolifin tolalarning issiqlik va yorug'lik ta'siriga chidamliligin oshirish uchun polimerga mahsus moddalar - ingibitorlar qo'shiladi. Poliolefin tolalarning fizik-mehanik hossalari yahshi bo'lishi bilan birga himiyaviy turg'unligi va mikroorganizmlarga chidamliligi ham ancha yuqori. Ular gigroskopik emas, (0%) boshqa barcha tolalarga qaraganda zichligi juda past.

Tola	Nisbiy uzilish nagruzka kN/teks	Uzilishdagi uzayishi %	Suyuqlanish temperaturasi °S	Zichligi gr/sm3
Polietilen	60-70	10-12	130-135	0,94-0,96
Polipropilen	25-45	15-30	170	0,91

**Poliuretan tolalar.** Chiziqli zichligi 2-125 teks. gacha bo'lgan poliuretan iplar - spandeks ishlab chiqariladi. Spandeks iplarning nisbiy uzilishi nagruzkasi 6-8 kN/teks. Uzilishdagi uzayishi 600-800% nagruzka olingandan keyin darhol elastik tiklanishi 90%, 1 minutdan keyin tiklanishi esa 95%.

#### 4-мавзу: Намлик ва намликтининг ахамияти.

Маъруза машғулотининг таълим технологиясининг модели.

<b>2- машгулом</b>	Намлик ва намликтининг ахамияти.
<b>Ўқув соати:</b> 2 соат	<b>Талабалар сони:</b>
<b>Ўқув машғулотнинг шакли</b>	<i>Ахборотли маъруза</i>
<b>Машғулотнинг режаси:</b>	1.Газламанинг физик хусусиятлари. 2.Намлик ванамликтининг ахамияти. 3.Намликни аниқлаш
<b>Ўқув машғулотининг мақсади:</b>	Намлик ванамликтининг ахамияти тўғрисида умумий маълумотлар тўғрисида назарий кўникма хосил қилиш.
<b>Педагогик вазифалари:</b> 1.Газламанинг физик хусусиятлари. 2.Намлик ванамликтининг ахамияти. 3.Намликни аниқлаш	<b>Ўқув фаолиятининг натижалари:</b> 1.Газламаларнинг физик хусусиятлари тўғрисида тушунчага эга бўладилар. 2. Намлик ва намликтининг ахамияти тўғрисида маълумотга эга бўладилар. 3.Намликни аниқлаш тўғрисида маълумотга эга бўладилар.
<b>Таълим усуллари</b>	Маъруза, тезкор сўров, намойиш этиш, сухбат.
<b>Таълим воситалари</b>	Ўқув қўлланма, слайдлар,
<b>Ўқитиши шакллари</b>	жамоавий, гурухларда ишлаш.
<b>Ўқитиши шарт-шароити</b>	Техник воситалар ва гурухларда ишлашга мўлжалланган аудитория

#### Ўқув машғулотининг технологик харитаси

<i><b>Ишнинг босқичлари ва вақти</b></i>	<i><b>Фаолият мазмуни</b></i>	
	<i><b>Ўқитувчининг</b></i>	<i><b>Талабаларнинг</b></i>
<b>1. Кириш қисми.</b> (15дақика)	1.1 Мақсад ва режалаштирилган ўқув натижалари билан танишириши	Диққат қилади ва ёзиб оладилар.
	1.2 Маъруза режаси билан таниширади.	Тинглаб ёзиб оладилар.
	1.3 Талабаларга ўтилган мавзу юзасидан тезкор саволлар берib билимларини текшириш Жавобларни биргаликда умумлаштиради ва асосий маъруза мавзусига ўтилади.	Тинглаб саволларга жавоб берадилар.
<b>2. Асосий қисм</b> (55 дақика)	2.1 Газламаларнинг физик хоссалари	Тинглаб, ёзиб оладилар ва унга Кластер тузадилар.
	2.2 Намлик ва намликтининг ахамияти	Тинглаб, ёзиб оладилар ва ундаги Кластерни чизиб, тўлдириб борадилар
	2.3 Намликни аниқлаш.	Талаба ўқитувчини тинглаб ёзиб оладилар
<b>3. Яқунловчи қисм.</b> (10 дақика)	3.1 Мавзу бўйича якуний хуроса ясайди, муҳим жиҳатларга иштирокчилар дикқатини жалб қилади, мавзу юзасидан саволларга жавоб беради.	Тинглайдилар
	3.2 Гурӯҳ фаолларини, алоҳида иштирокчиларни баҳолайди, ўзаро баҳолаш натижалари бўйича хуроса қилади.	Тинглаб, ёзиб оладилар.
	3.3 Ўқув машғулотининг мақсадига эришиш даражасини таҳлил қилади ва баҳолайди.	Тинглайдилар
	3.4 Уй вазифа беради: Мавзу бўйича «Кластерга» тузиб келиш.	Тинглаб, ёзиб оладилар.


**Дарс режаси:**

- 1.Газламанинг физик хусусиятлари.
- 2.Намлик ванамликтининг ахамияти.
- 3.Намликни аниқлаш.

**Таянч тушунчалар:** Gazlamalarning fizik xossalari, гигиеник хоссалари, гигроскопиклик, намлик, хавонинг хақиқий намлиги, буғ ўтказувчанлиги

Gazlamalarning fizik (gigieik) xossalariiga gigroskopligi, havo o'tkazuvchanligi, bug' o'tkazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, ho'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrianuvchanligi va xossalari kiradi. Fizik xossalariга qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziiga bog'liq bo'ladi.

**Namlikni aniqlash usullari**



**Gigroskoplik** – gazlamaning atrof muhitdan (havodan) nam shimish xususiyatini belgilaydi. Gigroskoplik ( $W_r\%$ ) havoning nisbiy namligi 100% va temperaturasi  $20+ - 2^\circ S$  bo'lganda materialning namligi

$$W_r = \frac{m_{100} - m_k}{m_k} 100\%$$

bunda:  $m_{100}$  - havoning namligi 100% bo'lganda 4 soat tutib turilgan material namunasining massasi;

$m_k$  - absolyut quruq namuna massasi g.

To'qimachilik materiallarining gigroskoplik xossalari baholaganda ko'pincha ularning haqiqiy namlik xarakteristikasidan foydalilanildi.

Haqiqiy namlik  $W$  (%) havoning haqiqiy namligida materialdagি namlik miqdorini ko'rsatadi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W_x = \frac{m_x - m_k}{m_k} 100\%$$

bunda:  $m_x$  - havoning haqiqiy namligidagi material namunasining massasi g;


$m_k$  - absolyut quruq namuna massasi g.

Ayniqla, ich kiyimlik va yozgi kiyimlik gazlamalar uchun gigroskoplik juda muhim hisoblanadi. Bunday gazlamalar ichida zig'ir tolali gazlamalarning gigroskopligi eng yuqori bo'ladi. Ip gazlamalar, tabiiy shoyi gazlamalar, shuningdek, viskoza gazlamalarining gigroskopligi ham yaxshi. Sintetik, triatsetat gazlamalarning gigroskopligi past, faqat vinol gazlamaning gigroskopligi ip gazlamani kiga o'xshaydi. Suv yuqtirmaydigan eritma shimdirlish, pylonka va rezina qatlamini qoplash, yuvilib ketmaydigan appretlar bilan ishlov berish natijasida gazlamaning gigroskopligi pasayadi.

**Havo o'tkazuvchanlik** – gazlamaning havo o'tkazish xususiyati, uning tola tarkibi, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Siyrak gazlamalar havoni yaxshi o'tkazadi, zich gazlamalar, suv yuqtirmaydigan eritmalar shimdirlilgan, rezinalangan gazlamalar havoni butunlay o'tkazmaydi yoki kam o'tkazadi.

**Bug' o'tkazuvchanlik** – gazlamaning odam tanasidan ajraladigan suv bug'larini o'tkazish xususiyati. Suv bug'lar gazlamadagi g'ovaklar orqali, shuningdek, materiallarning gigroskopligi hisobiga o'tadi. Gazlama kiyim ostidagi havodan namni shimib, uni atrofdagi muhitga o'tkazadi. Jun gazlamalar suv bug'larini sekin o'tkazadi va boshqa gazlamalarga qaraganda kiyim ostidagi havo temperaturasini yaxshi rostlab turadi.

### Suv o'tkazmaslik asbobi (penetrometr)



Kiyim modellarini yaratishda va konstruktsiyasini ishlab chiqishda gazlamaning xossalarini hisobga olish lozim. Masalan, bolonya tipidagi gazlamadan plash tikishdagи plashning havo o'tkazuvchanligi va bug' o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun kaketka tagiga bug' chiqib ketadigan to'r qo'yiladi.


Gazlamalarning **issiqni saqlash xossalari** qishki kiyimlik gazlamalar uchun aynilsa muhimdir. Bu xossalari gazlamaning tola tarkibiga, qalinligiga, zichligiga va pardoziiga bog'liq bo'ladi. Jun gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng pastdir.

Bosish, to'q chiqarish, presslash jarayonlari gazlamalarning issiqni saqlash xossalari yaxshilaydi. Ko'p qatlamli o'riliishlarni qo'llash tuk chiqarish natijasida gazlamada ko'p havo qatlamlari hosil bo'lib, ular gazlamaning issiqni saqlash xossalari kuchaytiradi. Tarab tuk chiqarilgan qalin, zich jun gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng yuqori bo'ladi.

**Suv o'tkazmaslik** – gazlamaning suv sizib kirishiga qarshi ko'rsatish xususiyati. Suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalar (brezentlar, palatkalar, parusinalar), plashli gazlamalar, paltolik va kostyumlik, jun gazlamalar uchun aynilsa muhimdir. Suv o'tkazmaslik gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziiga bog'liq bo'ladi.

Gazlamaning suv o'tkazmasligini oshirish va uni suv o'tkazmaydigan qilish uchun suv yuqtirmaydigan va suv o'tkazmaydigan qiluvchi padozlar beriladi.

### Газламаларнинг намликни тортиши



**5 – мавзу: Ипларнинг геометрик ва механик хоссалари.**  
Маъруза машғулотининг таълим технологиясининг модели.

<b>2- машғулот</b>	Ипларнинг геометрик ва механик хоссалари
<b>Ўқув соати:</b> 2 соат	<b>Талабалар сони:</b>
<b>Ўқув машғулотининг шакли</b>	<i>Ахборотли маъруза</i>
<b>Машғулотнинг режаси:</b>	1.Ипларнинг геометрик хоссалари 2.Ипларнинг механик хоссалари 3.Ипларнинг хоссаларини ўрганишнинг ахамияти.
